

---

## YAPONIYA ELCHIXONASI QO'SHTEPA TUMANIDAGI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIGA O'QUV JIHOZLARI SOTIB OLISH UCHUN QARIYB 41 MING DOLLARLIK GRANT SHARTNOMASINI IMZOLADI

Yaponiya elchixonasida "Yaponiya hukumatining kichik ijtimoiy loyihalarga ko'mak berish grantlari" dasturi doirasida grant shartnomasini imzolashning rasmiy marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda Yaponiyaning Muvaqqat ishlar vakili Toda Shinsuke, Qo'shtepa tumanidagi 35-maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari Shahodat Tojimatova, Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri Iqbolxon Maxmudova ishtirok etdi.

Loyihaga muvofiq, Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumanidagi 35-maktabgacha ta'lim tashkiloti 40 ming 814 AQSh dollariga o'quv jihozlari bilan ta'minlanadi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-03-10 18:10:33